



**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY
MARKAZI**



**O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI
O'QITISHDA INNOVATSION
METODLAR**



Modulning ishchi dasturi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 30-dekabrdagi oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish yo'nalishlari o'quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan

Tuzuvchi: FarDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, f.f.f.d.
(PhD) A.Rasulova

Taqrizchi: E.Ibragimova – Farg'ona davlat universiteti "Filologiya"
fakulteti dekani, f.f.n., dotsent

*O'quv dasturi Farg'ona davlat universiteti Kengashining qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.
(2025-yil "27" dekabrdagi 5-sonli yig'ilish bayonnomasi)*

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI	10
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	22
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	26
V. GLOSSARIY	43
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI:	47

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH.

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 2-sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo'nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan tayanch modullari mavzulari orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarning ta'limdagi islohotlar va sohaga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish, ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish, o'zbek tili va adabiyotini o'qitishda innovatsion metodlarni joriy etish orqali ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan birgalikda pedagog xodimlarning ehtiyojlari asosida tanlab olingan tanlov modullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

Kursning maqsadi va vazifalari

Akademik litseylar pedagog xodimlarining malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog xodimlarning o'quv-tarbiyaviy jarayonlarini yuqori ilmiy-metodik darajada ta'minlashlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam yangilash, kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining uzluksiz rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz oshirish va rivojlantirish;
- pedagoglarning zamonaviy talablarga mos holda akademik litseylardagi o'qitish sifati va samaradorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan kasbiy mahorat darajasini oshirish;
- o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish hamda ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'quv jarayonini ilm-fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Modul yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo‘yiladigan talablar:

“O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishda innovatsion metodlar” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- akademik litsey ta’lim tizimida o‘zbek tili va adabiyot fanining tutgan o‘rni, uni o‘qitishning maqsad va vazifalarini;
- o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitishning umumdidaktik va o‘ziga xos prinsiplarini;
- o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirishni;
- ona tili va adabiyot ta’limida ijodiy yondashuvlarni;
- ona tili va adabiyot ta’limida ijodiy yondashuvlarni
- ***bilishi*** kerak.

Tinglovchi:

- zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ona tili darslarida qo‘llash;
- o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitishda STEM, STEAM, PBL (Project-based learning) dan foydalanish;
- adabiy asarlarni innovatsion metodlar asosida o‘rganish;
- nutqiy muloqot va uning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish ***ko‘nikma va malakalariga*** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- akademik halollik tamoyillarini o‘rgatish va uning buzilish shakllarini aniqlash;
- sun’iy intellekt texnologiyalaridan mas’uliyatli, axloqiy va halol foydalanish;
- hamjihatlik, o‘zaro hurmat va tolerantlikni kuchaytirish;
- o‘zbek tili ta’limida AKT va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish;
- savod o‘rgatishda innovatsion metodlarni qo‘llash;
- ona tili va adabiy ta’limda Blum taksonomiyasiga asoslangan darslarni loyihalash;
- o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishda baholashning innovatsion usullarini amaliyotga tadbii etish ***kompetensiyasiga*** ega bo‘lishi lozim.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot
1.	Akademik litsey ta'lim tizimida o'zbek tili va adabiyot fanining tutgan o'rni, uni o'qitishning maqsad va vazifalari	2	2	
2.	Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ona tili darslarida qo'llanilishi	2	2	
3.	O'zbek tili ta'limida AKT va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish.	2		2
4	Savod o'rgatishda innovatsion metodlar	2		2
5	Nutqiy muloqot va uning o'ziga xos xususiyatlari.	2		2
	Jami:	10	4	6

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAVZULARI

1-mavzu: Akademik litsey ta'lim tizimida o'zbek tili va adabiyot fanining tutgan o'rni, uni o'qitishning maqsad va vazifalari. (2 soat ma'ruza)

Akademik litsey ta'lim tizimida o'zbek tili va adabiyot fanining tutgan o'rni, uni o'qitishning maqsad va vazifalari. O'zbek tili va adabiyoti o'qitishning umumdidaktik va o'ziga xos prinsiplari. Ta'lim tizimida ona tili va adabiyot fanining tutgan o'rni, uni o'qitishning maqsad va vazifalari, ona tili va adabiyot o'qitishning umumdidaktik va o'ziga xos prinsiplari.

2-mavzu: Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ona tili darslarida qo'llanilishi. (2 soat ma'ruza)

O'zbek tili va adabiyoti o'qitishda STEM, STEAM, PBL (Project-based learning) dan foydalanish. Ona tili va adabiyot o'qitish metodlari, tinglovchilarning bog'lanishli nutqi ustida ishlash.

AMALIY MASHG'ULOTLARI MAVZULARI

1-mavzu: O'zbek tili ta'limida AKT va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish. (2 soat amaliy)

Ona tili va adabiyot ta'limida ijodiy yondashuvlar. Ona tili va adabiy ta'limda Blum taksonomiyasiga asoslangan darslarni loyihalash. Ta'lim jarayonida innovatsion ta'lim metodlari, ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirish.

2-mavzu: Savod o'rgatishda innovatsion metodlar.

Adabiy asarlarni innovatsion metodlar asosida o'rganish. Savod o'rgatishning nazariy asoslari. Savod o'rgatishda innovatsion metodlarning mohiyati. Savod o'rgatishda innovatsion metodlarni amaliy qo'llash.

3-mavzu: O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirish. O'zbek tili va adabiyotini o'qitishda baholashning innovatsion usullari.

Nutqiy muloqot va uning o'ziga xos xususiyatlari. O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligining nazariy asoslari. O'zbek tili va adabiyotini o'qitishda baholash tizimining rivoji. O'zbek tili va adabiyotini o'qitishda baholashning innovatsion usullari.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishda innovatsion metodlar” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va masofaviy ta’limga asoslangan raqamli texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- video ma’ruzada zamonaviy interaktiv texnologiyalar yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalar;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda bulutli texnologiyaga asoslangan dasturiy vositalar, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Maxsus adabiyotlar

1. Dadaboyev H. "O'zbek terminologiyasi" - T.: Nodirabegim, 2020. - 142 b
2. Xudoyberganova D. "Til. Tafakkur. Madaniyat" – T.: Nodirabegim, 2020.
3. Qodirov, Sh. "O'zbek tilida punktuatsiya qoidolari"– T.: "Fan va ta'lim", 2019. – 132 b.
4. Normurodova, G. "Yozma nutqda tinish belgilarining ro'li" – "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, №2, 2020. – 21–30 b.
5. Rustamova, N. "Punktuatsiya va matnning mantiqiy tuzilishi" – T.: "Zamonaviy ta'lim", 2021. – 98 b.
6. Ergasheva, D. "Tinglovchilarda yozma nutq madaniyatini shakllantirishda punktuatsiya" – "Pedagogik innovatsiyalar", №3, 2022. – 35–42 b.
7. Tursunov, A. "Zamonaviy maktabda o'zbek tilini o'qitishda punktuatsiya metodikasi" – T.: "O'qituvchi", 2023. – 112 b.
8. Jalilova, S. "Til kompetentsiyasini rivojlantirish metodikasi" – T.: "Fan va innovatsiya", 2020. – 140 b.
9. Mirzaev, F. "Tinglovchilarda yozma nutq va til kompetentsiyasini oshirish" – "Ta'lim va tarbiya", №4, 2021. – 55–63 b.
10. Sattorova, L. "O'zbek tilini o'qitishda yozma nutq madaniyati"– T.: "Pedagogik qo'llanma", 2022. – 168 b.
11. Raxmonov, B. "Yozma nutq va punktuatsiya: tinglovchi kompetentsiyasi" – "Oliy ta'limda innovatsiyalar", №1, 2023. – 47–54 b.
12. Normurodova, D. "O'zbek tili darslarida yozma nutq va punktuatsiya bo'yicha mashqlar" – T.: "O'qituvchi metodikasi", 2024. – 102 b.
13. Simon Greenall "Reward" Elementary, Student's book, Macmillan 2002

IV. Elektron ta'lim resurslari

1. <http://natlib.uz>
2. <http://yedu.uz>
3. <http://lex.uz>
4. <http://lib.bimm.uz>
5. <http://ziyonet.uz>
6. <http://natlib.uz>

MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. **Interfaol metodlar** deganda-ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e’tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini ta’lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;

- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir echimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. YOzma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan ta'lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda-yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.
3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda-mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.


“Aqliy hujum” metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.

2. Bildirilgan har qanday fikr-g'oyalar, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.

3. Har bir ta'lim oluvchi qatnashishi shart.

Quyida "Aqliy hujum" metodining tuzilmasi keltirilgan.



"Aqliy hujum" metodining tuzilmasi

"Aqliy hujum" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, g'oya va mulohaza) bildirishlarini so'raladi;
2. Ta'lim oluvchilar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Ta'lim oluvchilarning fikr-g'oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;
4. Fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

"Aqliy hujum" metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli fikr-g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta'lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;
- ta'lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otadi.

“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- ta’lim beruvchi tomonidan savolni to’g’ri qo’ya olmaslik;
- ta’lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o’quv materialini o’rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo’llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo’lishga, bir-biridan o’rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo’ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo’llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo’ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o’zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:

- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.


«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

“Davra suhbatı” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbatı” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida


joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan "ko'z aloqasi"ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lim oluvchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lim oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.



Belgilar:
1-ta'lim oluvchilar
2-aylana stol

Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va "Javob varaqasi"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. SHundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini "Javoblar varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida "Davra suhbat" metodining tuzilmasi keltirilgan



“Davra suhbat” metodining tuzilmasi

“Davra suhbat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg‘ulot mavzusi e‘lon qilinadi.
2. Ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchilarni mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta‘lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta‘lim oluvchi bo‘lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi. Ta‘lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta‘lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo‘yicha o‘z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta‘lim oluvchi konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta‘lim oluvchiga uzatadi.

6. Konvertni olgan ta'lim oluvchi konvert ustidagi savolga "Javoblar varaqalari"dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertdagi "Javoblar varaqalari"ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni obyektiv baholashi mumkin.

"Davra suhbat" metodining afzalliklari:

- o'tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- har bir ta'lim oluvchi o'zining baholanishi mas'uliyatini his etadi;
- o'z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

"Davra suhbat" metodining kamchiliklari:

- ko'p vaqt talab etiladi;
- ta'lim beruvchining o'zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi;
- ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.


"Rolli o'yin" metodi - ta'lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko'rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o'yinlarning ishbop o'yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga "Rolli o'yin" metodida ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, "Ishbop o'yin" metodida rol ijro etuvchilar ma'lum vaziyatda

qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o'zlari hal etadilar.

Rolli o'yinda ham ishbop o'yin kabi muammoni echish bo'yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo'lga qo'yilgan. Rolli o'yinlar ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli o'yin” metodida ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar haqida oldindan ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Chunki rollarni o'ynashda har bir ta'lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o'yinlar o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Quyida “Rolli o'yin” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Rolli o'yin” metodining tuzilmasi

“Rolli o'yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha o'yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o'yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O'yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O'yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta'lim oluvchilar o'z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta'lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.

5. O'yin yakunida ta'lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo'lgan ta'lim oluvchilar o'z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o'yinga xulosa qilinadi.

Ushbu metodni qo'llash uchun ssenariy t'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba'zi hollarda ta'lim oluvchilarni ham ssenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta'lim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo'yicha o'tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba'zi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta'lim oluvchilar ushbu rolli o'yin ko'rinishidan so'ng o'z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

“Rolli o'yin” metodining afzallik tomonlari:

- o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarda motivatsiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi;
- ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishni o'rgatadi;
- ta'lim oluvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

“Rolli o'yin” metodining kamchilik tomonlari:

- ko'p vaqt talab etiladi;
- ta'lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- ta'lim oluvchilarning o'yinga tayyorgarligi turlicha bo'lishi mumkin;
- barcha ta'lim oluvchilarga rollar taqsimlanmay qolishi mumkin.

“Bahs-munozara” metodi - biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir.


Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta'lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin

holatda olib borish va har bir ta'lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta'lim oluvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- “o'ng qo'l” qoidasi (qo'lini ko'tarib, ruhsat olgandan so'ng so'zlash)ga rioya qilish;
- fikr-g'oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g'oyalarning takrorlanmasligi;
- bir-birlariga o'zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o'tkazish tuzilmasi berilgan.



“Bahs-munozara” metodining tuzilmasi

“Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammo bo'yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.

3. Ta'lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya'ni turli g'oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta'lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga o'z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.

4. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g'oyalarni guruhlariga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.

5. Tahlil natijasida qo'yilgan muammoning eng maqbul echimi tanlanadi.

“Bahs-munozara” metodining afzalliklari:

- ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;
- ta'lim oluvchilar o'z fikrining to'g'riligini isbotlashga harakat qilishiga imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilarda tinglash va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.


“Bahs-munozara” metodining kamchiliklari:

- ta'lim beruvchidan yuksak boshqarish mahoratini talab etadi;
- ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.

“Muammoli vaziyat” metodi - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning echimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda echimni topa olmagach, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning echimini topishni o'rganadilar. Quyida

“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni echishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni echish yo'llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning echimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil echimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni echish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:

- ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- ta'lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va echimlarni topishni o'rganadilar;
- ta'lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o'rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining kamchiliklari:

- ta'lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- qo'yilgan muammo ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;

III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-mavzu: Akademik litsey ta'lim tizimida o'zbek tili va adabiyot fanining tutgan o'rni, uni o'qitishning maqsad va vazifalari.

Reja:

1. Akademik litsey ta'lim tizimida o'zbek tili va adabiyot fanining tutgan o'rni
2. Fanni o'qitishning maqsad va vazifalari
3. O'zbek tili va adabiyoti o'qitishning umumdidaktik va o'ziga xos prinsiplari

O'zbek tili va adabiyoti fani akademik litsey ta'lim tizimida tayanch va yetakchi fanlardan biri hisoblanadi. Ushbu fan tinglovchilarning milliy tafakkuri va ma'naviy dunyosini shakllantirish, ona tiliga hurmat va muhabbatni kuchaytirish, muloqot madaniyatini rivojlantirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Akademik litsey bosqichida o'zbek tili va adabiyoti fani tinglovchini oliy ta'limga tayyorlash, ilmiy va kasbiy faoliyatda til imkoniyatlaridan samarali foydalanishga yo'naltirilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Ona tili tinglovchini mustaqil fikrlashga, mulohazalarni og'zaki va yozma ravishda to'liq bayon qilishga o'rgatadi. Tinglovchining savodxonlik darajasini, uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni ona tilidan hosil qilingan bilim va malakalari asosiga quriladi. Ma'lumki, har bir milliy til o'zida moddiy olamni aynan aks ettirishdan tashqari ruhiy olamni, qayg'u-alamlari-yu shodliklarini ham o'rinda tugal ifodalaydi.

Insonda har bir narsaga nisbatan o'z munosabatini bildirish imkoniyati bor va bu imkoniyat har gal tilning muayyan shakllari orqali yuzaga chiqariladi. Tilning o'ziga xos nafosatini tinglovchilarga yetkazish, his qildirish, sezish va undan oqilona foydalanish maqsadida hozirda ona tili ta'limida an'anaviy usullardan tashqari zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda.

Ta'limda Ona tilini o'quv fani sifatida o'qitishning ijtimoiy ahamiyati shundaki, jamiyatimiz, xalqimiz, millatimiz ravnaqining kelajagi, uning gullab-yashnashi bugungi yoshlarning mustaqil turmushga, nutqiy faoliyatga, yuksak madaniyat bilan so'zlasha olishga qay darajada tayyorlashaniga bog'liq. Chunki so'z qudrati insoniyat tarixida hamma vaqt yuksak qudratga ega bo'lgan. Jamiyat rivojlangan sari xalqning madaniyat darajasi ortib boradi. Madaniy hayotning rivoji avvalo jamiyat a'zolarining madaniy so'zlashuvga bo'lgan ehtiyojining ortib borishi bilan belgilanadi. Yoshlarda yuksak nutq odobini tarbiyalash ona tili kursi zimmasiga tushadi. Ijtimoiy o'zgarishlar, shaxs tarbiyasiga munosabat, jamiyatning shaxsga nisbatan talablari bilan birgalikda jahon tilshunosligi fani va ona tilining ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi; tilni imkoniyat, nutqni esa shu imkoniyatning sharoit va maqsadga mos ravishda yuzaga chiqishi deb o'rganuvchi sistem tilshunoslik nazariyasi rivojlandi, ilg'or davlatlarning ko'pida ona tilidan ta'lim mazmuni tubdan yangilandi. Ona tili mashg'ulotlari mustaqil va ijodiy fikrlash, fikr mahsulini og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri va ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishning bosh omiliga aylantirildi. Yangi iqtisodiy munosabatlar har qanday faoliyatni uning beradigan pirovard iqtisodiy natijasi bilan baholashni talab etadi. Jumladan, ta'limga sarflanadigan moddiy xarajatlar ta'limning natijasi bilan qoplanib qolmay, balki sarf bo'lgan xarajatlardan ko'proq moddiy manfaat kelishi lozim. Bu – ta'limning barcha bo'g'inlari va sohalari, jumladan, ona tili ta'limi uchun qo'yiladigan umumiy, zamonaviy, iqtisodiy va ma'naviy talabdir. Ona tilini fan sifatida o'qitish qanday moddiy manfaat berishi mumkin, qanday qilib ona tili ta'limini moddiy jihatdan manfaatli, foydali qilish mumkin? “Ona tili fani moddiy manfaat keltirmaydi” degan fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki ona tili ta'limi natijasida tinglovchi DTS talablari darajasida muayyan malaka va ko'nikmalar hosil qiladi va bu ko'nikma hamda malakalarning davr talablariga mosligi bevosita iqtisodiy ko'rsatkichlar – moddiy manfaat ko'rsatkichlari bilan o'lchanadi. Ona tili fanining moddiy ko'rsatkichlari bolalarning imlo savodxonligi, so'z boyligi va undan foydalanish mahorati, mustaqil ijodiy fikrlay olishi, fikr

mahsulini maqsadga muvofiq ravishda ogʻzaki va yozma shakllarda bayon qila olishi kabilarda namoyon boʻladi. Ona tilini fan sifatida oʻqitmay turib, maʼnaviy barkamol shaxsni tarbiyalab boʻlmaydi. Chunki ona tili fani tinglovchilarni milliy til va uning tarixi, boy madaniy oʻtmishi bilan tanishtiradi, milliy qadriyatlarimiz, anʼanalarimiz, urf -odatlarimizni qadrlashga oʻrgatadi.

Fanni oʻqitishdan asosiy maqsad — tinglovchilarning nutqiy savodxonligini yuksaltirish, adabiy-estetik tafakkurini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, barkamol shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Shuningdek, tinglovchilarda adabiy til meʼyorlariga amal qilish, ogʻzaki va yozma nutqni ravon va mantiqiy bayon etish, badiiy asarlarni tahlil qila olish malakalarini shakllantirish koʻzda tutiladi.

Ona tili oʻqitishning bosh maqsadi tilning jamiyatda tutgan oʻrni, bajaradigan vazifasi bilan belgilanadi. Maʼlumki, til jamiyat aʼzolari oʻrtasida aloqa-aralashuv vositasi, insonning fikrlash va fikr mahsulini ogʻzaki hamda yozma ravishda bayon qila olish, oʻz ichki kechinmalarini ifodalash vositasi boʻlib xizmat qiladi. Ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlash belgilari. Tinglovchining oʻquv materialini oʻzlashtirish jarayoni murakkab jarayon boʻlib, til hodisalarini kuzata olish, izlanish, alohidaliklarni sharhlash, qiyoslash, umumiylikni aniqlash, farqlarni topish, tasnif etish, hukm chiqarish, alohidaliklarni aniqlash, qoʻllash singarilar bilan bogʻliq. Bular ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlashning muhim belgilari boʻlib, ularning har biri oʻziga xos xususiyatlarga ega:

1. Kuzatish – darslik (oʻqituvchi) topshirigʻi asosida ona tili hodisalaridan berilgan (koʻrsatilgan) namunalarni kuzata olish;

2. Izlanish – oʻylash, xotirada tiklash soʻrash, lugʻat, qomus, maʼlumot manbalaridan foydalanish asosida hodisalar sirasini boyita olish;

3. Alohidaliklarni sharhlash – berilgan va oʻzi davom ettirgan siradagi har bir hodisani alohida-alohida sharhlay olish;

4. Qiyoslash – siradagi hodisalarni oʻzaro qiyoslay olish;

5. Umumiylikni aniqlash – siradagi hodisalarning oʻxshash, umumiy tomonlarini aniqlay olish;

6. Farqlarni toppish – siradagi hodisalarning bir-biridan farqli tomonlarini aniqlay olish;

7. Tasnif etish – siradagi hodisalarni o‘xshashlik va farqlari asosida guruh hamda guruhchalarga ajrata olish;

8. Hukm chiqarish – hodisalar sirasi haqida umumlashma (hukm, xulosa, qoida) chiqara olish;

9. Alohidaliklarni aniqlash – o‘rganilgan hodisalarning yondoshlari (ma‘nodoshlari, shakldoshlari, vazifadoshlari, qiymatdoshlari, zidlari va h.k.) bilan munosabatlarini (yaqinlik, o‘xshashlik va farqlarini) aniqlay olish;

10. Qo‘llash – hodisalarni mustaqil ravishda yozma va og‘zaki shakllarda sharhlab, ijodiy matn tuza olish. Ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlashning oliy ko‘rinishi matn yaratishdir. Shu sababli, ona tili darslarida matn ustida ishlash yetakchi yo‘nalish kashf etishi lozim.

O‘zbek tili va adabiyoti fanining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Til bo‘yicha vazifalar: o‘zbek adabiy tilining fonetik, leksik, grammatik va uslubiy xususiyatlarini chuqur o‘rgatish; tinglovchilarning imlo va nutq madaniyatini takomillashtirish; ilmiy, badiiy va rasmiy-uslubdagi matnlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

2. Adabiyot bo‘yicha vazifalar: o‘zbek va jahon adabiyotining eng sara namunalari bilan tanishtirish; badiiy asar orqali ma‘naviy-axloqiy tarbiya berish; adabiy tahlil, obrazlarni tushunish va baholash malakalarini rivojlantirish.

3. Tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalar: milliy g‘urur, vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish; mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirish; muloqot madaniyati va nutqiy kompetensiyalarni oshirish.

O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishning umumdidaktik prinsiplari. Umumdidaktik prinsiplar barcha fanlar uchun xos bo‘lib, o‘zbek tili va adabiyoti ta‘limida ham muhim ahamiyatga ega.

- Ilmiylik prinsipi. Ta‘lim mazmuni zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslik yutuqlariga asoslanishi, ilmiy jihatdan asoslangan bo‘lishi lozim. Tushunchalar aniq, mantiqli va izchil bayon qilinadi.

- Tizimlilik va izchillik prinsipi. Bilimlar oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga tomon ketma-ketlikda beriladi. Til bo'limlari va adabiy davrlar o'zaro uzviy bog'liq holda o'rgatiladi.

- Onglilik va faollik prinsipi. Tinglovchilar bilimni tayyor holda emas, balki ongli ravishda o'zlashtirishi, tahlil qilish va xulosa chiqarishga faol jalb etilishi zarur.

- Ko'rgazmalilik prinsipi. Dars jarayonida jadval, sxema, klaster, slayd, badiiy matnlar va audio-video vositalardan foydalanish bilimni samaraliroq o'zlashtirishga xizmat qiladi.

- Ta'lim va tarbiyaning birligi prinsipi. Til va adabiyot darslari nafaqat bilim beradi, balki tinglovchilarda axloqiy, estetik va ma'naviy fazilatlarni shakllantiradi.

- Hayot bilan bog'liqlik prinsipi. O'rganilayotgan til hodisalari va badiiy asarlar real hayot, ijtimoiy voqelik va tinglovchilarning shaxsiy tajribasi bilan bog'lab o'rganiladi.

- Yoshlarga moslik va individual yondashuv prinsipi. Ta'lim mazmuni tinglovchilarning yoshi, qiziqishi va bilish imkoniyatlariga mos bo'lishi zarur.

O'zbek tili va adabiyotini o'qitishning o'ziga xos (xususiy) prinsiplari aynan til va adabiyot fanlariga xos bo'lib, ularning mazmunidan kelib chiqadi.

- Nutqni rivojlantirishga yo'naltirilganlik prinsipi. Har bir til qoidasi tinglovchining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.

- Nazariya va amaliyot birligi prinsipi. Til qoidalari misollar, mashqlar, matnlar orqali mustahkamlanadi. Adabiyotda esa nazariy tushunchalar asar tahlili jarayonida beriladi.

- Matn ustida ishlash prinsipi. Til va adabiyot darslarida matn asosiy o'quv birligi hisoblanadi. Matn orqali grammatik, uslubiy va badiiy tahlil olib boriladi.

O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini oshirish ta'lim sifatini yuksaltirishning asosiy shartlaridan biridir. Zamonaviy bilim va texnologiyalar bilan qurollangan, ijodkor va mas'uliyatli o'qituvchi barkamol avlodni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Shu bois o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini tizimli va uzluksiz ravishda qo'llab-quvvatlash bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir.

Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'pincha baholash tizimining sifatiga bog'liq bo'ladi. O'zbek tili va adabiyoti fanida tinglovchilarning bilimini faqat an'anaviy yozma testlar orqali o'lchash yetarli emas. Bugungi kunda innovatsion baholash usullari tinglovchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ko'nikma, tafakkur va ijodiy salohiyatini baholash imkonini beradi. Shu bois, zamonaviy o'qituvchi baholashning yangi shakllarini dars jarayoniga joriy qilishi lozim.

Innovatsion baholash — bu tinglovchilarning kognitiv, ijodiy va kommunikativ kompetensiyalarini aniqlashga qaratilgan zamonaviy metod va vositalar majmuasi. U interfaol, ko'p qirrali va tinglovchi faoliyatini rag'batlantiruvchi xususiyatga ega. Bunday baholash tinglovchining faolligini oshiradi, o'z ustida ishlashga

undaydi va ta'lim sifatini yaxshilaydi.

Formativ baholash (Formative Assessment) usuli dars davomida tinglovchilarning bilim va ko'nikmalarini doimiy kuzatish orqali ularni rivojlantirishga qaratilgan. Masalan, matn tahlili, grammatika mashqlari, yozma vazifalar va og'zaki javoblar asosida tinglovchilarning yutuqlari va kamchiliklari aniqlanadi. Formativ baholash tinglovchilarga o'z xatolarini tushunib, ularni tuzatish imkonini beradi.

Raqamli baholash vositalari – elektron testlar, onlayn viktorinalar, interfaol ilovalar yordamida tinglovchilar bilimini tez va obyektiv baholash mumkin. AKT asosidagi baholash natijalarni tezkor qayta ishlash, individual yondashuvni ta'minlash va statistika yuritish imkonini beradi.

Portfel (Portfolio) usulida tinglovchi yil davomida bajarilgan ishlar, insho, referatlar, ijodiy loyihalar va tahliliy materiallardan portfel tuzadi. Bu usul uning bilim, ko'nikma va ijodiy rivojlanishini uzoq muddatli kuzatishga imkon beradi. Portfel tinglovchining o'z-o'zini baholash va refleksiya qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Peer Assessment (Tinglovchilararo baholash) usulida tinglovchilar bir-birlarining yozma ishlarini, nutqini yoki loyihalarini baholaydi. Shu orqali ular tanqidiy fikrlash, konstruktiv mulohaza bildirish va baholash qobiliyatini egallaydi.

Self-Assessment (O'zini baholash) da tinglovchilar o'z ishlarini, matn tahlili yoki yozma ishlarini o'rganib, o'z yutuqlari va kamchiliklarini aniqlaydi. Bu usul tinglovchilarni mustaqil va mas'uliyatli fikrlashga o'rgatadi.

Ijodiy va loyiha baholash – adabiyot darslarida tinglovchilarning loyiha ishlari, sahnalashtirilgan asarlar, multimedia taqdimotlar yoki esse ishlarini baholash innovatsion metod hisoblanadi. Bu usul orqali tinglovchilarning badiiy tafakkuri, tahlil va ijodiy qobiliyati o'lchanadi.

Gamifikatsiya asosidagi baholash o'quv jarayonini o'yin elementlari bilan boyitish, masalan, ball to'plash tizimi, viktorina va onlayn o'yinlar orqali baholash tinglovchilarda qiziqish va rag'batni oshiradi. Shu bilan birga, bilimlarni tez va interaktiv tarzda tekshirish imkonini beradi.

Innovatsion baholashning afzalliklari: tinglovchilarning faolligini oshiradi; mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi; baholash jarayoni obyektiv va shaffof bo'ladi; tinglovchilarning ijodiy salohiyatini aniqlashga imkon beradi; o'qituvchiga darsni moslashtirish va individual yondashuvni qo'llash imkonini beradi.

O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini oshirish hamda ta'lim jarayoniga baholashning innovatsion usullarini samarali joriy etish ta'lim sifatini yuksaltirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik bilimlar, raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar va ilg'or baholash mexanizmlari bilan qurollangan o'qituvchi tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini chuqur rivojlantirish, ularning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Kasbiy jihatdan yetuk, ijodkor va mas'uliyatli o'qituvchi ta'lim jarayonini samarali tashkil etibgina qolmay, balki tinglovchilarda ona tiliga va milliy adabiyotga bo'lgan hurmat va qiziqishni oshiradi, ularni ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, vatanparvar va barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Ayniqsa, baholashning innovatsion usullaridan foydalanish tinglovchilarning faolligini oshirib, ularni o'z ustida ishlashga undaydi hamda ta'lim natijalarining shaffof va obyektiv bo'lishini ta'minlaydi.

Shu bois o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishini tizimli va uzluksiz ravishda qo'llab-quvvatlash, ularning malakasini oshirishga qaratilgan zamonaviy dasturlarni joriy etish, pedagogik innovatsiyalarni amaliyotga keng tatbiq etish bugungi ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu esa kelajakda raqobatbardosh, ma'naviy yetuk va intellektual salohiyatga ega avlodni tarbiyalash uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Testlar

1. O'zbek tili va adabiyoti fani akademik litseyda qanday fan hisoblanadi?
A) Tayanch va yetakchi fan
B) Qo'shimcha fan
C) Ixtisoslashgan fan
D) Tanlov fani

2. Ona tili va adabiyot fan tinglovchilarda asosan nimani shakllantiradi?
A) Milliy tafakkur va ma'naviy dunyoqarashni
B) Texnik bilimlarni
C) Jismoniy tayyorgarlikni
D) Matematik tafakkurni

3. Akademik litsey bosqichida ona tili fani nimaga yo'naltirilgan?
A) Oliy ta'lim va kasbiy faoliyatga tayyorlashga
B) Boshlang'ich savod o'rgatishga
C) Faqat imlo qoidalariga
D) Nazariy bilimlarni yodlashga

4. Tinglovchining savodxonlik darajasi nimaga asoslanadi?
A) Ona tilidan hosil qilingan bilim va malakalarga
B) Texnik ko'nikmalarga
C) Fanlar soniga
D) Baholar tizimiga

5. Milliy til nimalarni ifodalaydi?
A) Moddiy va ruhiy olamni
B) Faqat moddiy olamni
C) Faqat ilmiy tafakkurni
D) Texnik tushunchalarni

6. Til orqali inson nimani namoyon qiladi?
A) O'z munosabatini
B) Faqat bilimini
C) Jismoniy holatini
D) Kasbiy malakasini

7. Zamonaviy ona tili ta'limida nimalardan foydalanilmoqda?
A) Axborot va pedagogik texnologiyalardan

- B) Faqat darslikdan
- C) Og‘zaki tushuntirishdan
- D) Reproduktiv mashqlardan

8. Javoblarning qaysi birida ona tili ta’limining ijtimoiy ahamiyati to‘g‘ri berilgan?

- A) Jamiyat kelajagi yoshlar tayyorgarligiga bog‘liq
- B) Dars soatlarining ko‘p
- C) Fanlararo integratsiya mavjud
- D) Nazorat ishlari

9. Yuksak nutq odobini tarbiyalash zimmasiga tushadigan fan qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

- A) Ona tili fani
- B) Tarix fani
- C) Psixologiya fani
- D) Informatika fani

10. Zamonaviy tilshunoslikda til qanday tushuniladi?

- A) Imkoniyat sifatida
- B) Tayyor qoida sifatida
- C) Faqat aloqa vositasi sifatida
- D) Yozma nutq sifatida

11. Javoblarning qaysi birida ona tili mashg‘ulotlarining yetakchi vazifasi to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) Mustaqil va ijodiy fikrlashni shakllantirish
- B) Yodlashni kuchaytirish
- C) Nazoratni ko‘paytirish
- D) Qoidalarni takrorlash

12. Ta’limning iqtisodiy talabi nazarda tutilgan jarayon berilgan javobni belgilang.

- A) Natijaning moddiy manfaat berishini
- B) Xarajatni kamaytirishni
- C) Fanlar sonini qisqartirishni
- D) Dars vaqtini oshirishni

13. Ona tili fanining moddiy ko‘rsatkichlari namoyon bo‘luvchi jarayon qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

- A) Imlo savodxonligi va fikrni bayon qila olishda

- B) Darslik hajmida
- C) Soat miqdorida
- D) Fanlararo bog‘liqlikda

14. Ona tili fanisiz tarbiyalab bo‘lmaydigan shaxs berilgan javobni belgilang.

- A) Ma’naviy barkamol shaxsni
- B) Texnik mutaxassisni
- C) Sportchini
- D) Iqtisodchini

15. Qaysi javobda ona tili fanini o‘qitishdan asosiy maqsad to‘g‘ri berilgan?

- A) Nutqiy savodxonlik va barkamol shaxsni tarbiyalash
- B) Faqat grammatik bilim berish
- C) Nazorat ishlarini ko‘paytirish
- D) Test natijalarini oshirish

16. Ona tili o‘qitishning bosh maqsadi nimaga bog‘liqligi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) Tilning jamiyatdagi vazifasiga
- B) Darslik mazmuniga
- C) O‘qituvchi tajribasiga
- D) O‘quv rejasiga

17. Ijodiy tafakkurning oliy ko‘rinishi to‘g‘ri berilgan javobni belgilang.

- A) Matn yaratish
- B) Qoidani yodlash
- C) Test yechish
- D) Qiyoslash

18. Ona tili darslarida yetakchi yo‘nalish berilgan javobni belgilang.

- A) Matn ustida ishlash
- B) Diktant yozish
- C) Qoidani ko‘chirish
- D) So‘z yodlash

19. Til bo‘yicha vazifalarga kiruvchi bilim to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni belgilang.

- A) Fonetik, leksik, grammatik va uslubiy bilimlarni o‘rgatish
- B) Faqat imlo qoidalarini yodlash
- C) Nutq tezligini oshirish

D) Test ishlash

20. Adabiyot bo'yicha vazifalardan biri to'g'ri ko'rsatilgan javob qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A) Badiiy asar orqali ma'naviy-axloqiy tarbiya berish
- B) Faqat muallif hayotini o'rganish
- C) Asarlarni yodlash
- D) Nazorat ishlarini o'tkazish

21. Ilmiylik prinsipi nimani talab qiladi?

- A) Ta'lim mazmunining ilmiy asoslangan bo'lishini
- B) Ko'rgazmalilikni
- C) Faollikni
- D) Hayotiylikni

22. Onglilik va faollik prinsipi nimaga yo'naltirilgan?

- A) Bilimni ongli o'zlashtirishga
- B) Yodlashga
- C) Nazoratga
- D) Takrorlashga

23. Nutqni rivojlantirishga yo'naltirilganlik prinsipi haqidagi fikr to'g'ri berilgan javobni belgilang.

- A) Har bir qoida nutqni rivojlantirishga xizmat qilishini ko'zda tutadi
- B) Faqat yozma nutqni ko'zda tutadi
- C) Faqat og'zaki nutqni ko'zda tutadi
- D) Nazariy bilimni ko'zda tutadi

24. Ona tili va adabiyot fani oldiga qo'yilgan asosiy maqsad berilgan javobni belgilang.

- A) Mustaqil fikrlaydigan, savodli va ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalash
- B) Fan yuklamasini oshirish
- C) Nazorat ishlarini ko'paytirish
- D) An'anaviy ta'limni saqlash

25. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda nimaning ahamiyati ortib bormoqda?

- A) Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning
- B) An'anaviy ma'ruzalarning
- C) Nazorat ishlarining

D) Dars soatlarining

26. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ...ni ta'minlaydi. Nuqtalar o'rini to'ldiring.

A) Oldindan rejalashtirilgan va kafolatlangan natijani

B) Tasodifiy natijani

C) Faqat nazariy bilimni

D) An'anaviy yondashuvni

27. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarda ta'lim markazida turuvchi shaxs berilgan javobni belgilang.

A) Shaxs (tinglovchi)

B) O'qituvchi

C) Darslik

D) Nazorat tizimi

28. Interfaollik nimaga xizmat qiladi?

A) Tinglovchilarning faolligini oshirishga

B) Yodlashni kuchaytirishga

C) Nazoratni ko'paytirishga

D) Dars vaqtini qisqartirishga

29. Qaysi qatorda interfaol metodlar berilgan?

A) "Aqliy hujum", "Klaster", "Debat"

B) Ma'ruza va tushuntirish

C) Diktant va bayon

D) Reproduktiv mashqlar

30. Interfaol metodlar tinglovchilarda nimani rivojlantiradi?

A) Mantiqiy fikrlash va nutq madaniyatini

B) Mexanik xotirani

C) Faqat yozma nutqni

D) Test ishlash tezligini

31. Muammoli ta'lim texnologiyasi nimani shakllantiradi?

A) Izlanish va tahlil qilish ko'nikmalarini

B) Yodlash malakasini

C) Reproduktiv faoliyatni

D) Passivlikni

32. Muammoli vaziyatlar tinglovchini nimaga undaydi?

- A) Mustaqil fikrlashga
- B) Tayyor javobni qabul qilishga
- C) Yodlashga
- D) Kuzatishga

33. Loyiha asosida o'qitish texnologiyasi nimaga xizmat qiladi?

- A) Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lashga
- B) Qoidalarni yodlashga
- C) Nazorat ishlarini o'tkazishga
- D) Dars vaqtini tejashga

34. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ajralmas qismi nima?

- A) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
- B) An'anaviy darsliklar
- C) Og'zaki so'rovlar
- D) Yozma nazoratlar

35. AKT dars jarayonida nimani oshiradi?

- A) Ko'rgazmalilik va samaradorlikni
- B) Dars murakkabligini
- C) Nazorat sonini
- D) Yodlash hajmini

36. Fanlararo integratsiya va innovatsion yondashuvlar nimani rivojlantiradi?

- A) Tanqidiy va ijodiy fikrlashni
- B) Mexanik xotirani
- C) Reproduktiv tafakkurni
- D) Passiv o'rganishni

37. STEM texnologiyasi nimaga yo'naltirilgan?

- A) Mantiqiy va tizimli fikrlashni rivojlantirishga
- B) Estetik didni oshirishga
- C) Nutq tezligini oshirishga
- D) Yodlashni kuchaytirishga

38. O'zbek tili darslarida STEM yondashuvi nimaga xizmat qiladi?

- A) Til hodisalarini tahlil qilishga

- B) Faqat test ishlashga
- C) She'r yodlashga
- D) Diktant yozishga

39. Adabiyot darslarida STEM yondashuvi qanday amalga oshiriladi?

- A) Asar syujeti va obrazlarni mantiqiy tahlil qilish orqali
- B) Asarni yodlash orqali
- C) Muallif tarjimai holini o'rganish orqali
- D) Faqat baholash orqali

40. STEAM texnologiyasi STEMdan nimasi bilan farq qiladi?

- A) San'at komponentini qo'shishi bilan
- B) Texnologiyani olib tashlashi bilan
- C) Matematikani cheklashi bilan
- D) Fanlararo bog'liqlikni kamaytirishi bilan

41. STEAM yondashuvi o'zbek tili va adabiyotiga nima uchun mos?

- A) Ijodiy va estetik faoliyatni rivojlantirgani uchun
- B) Faqat texnik bilim bergani uchun
- C) Nazariy yondashuvga asoslangani uchun
- D) Darsni soddalashtirgani uchun

42. Adabiy asarlarni sahnalashtirish qaysi texnologiyaga xos?

- A) STEAM texnologiyasiga
- B) STEM texnologiyasiga
- C) Reproktiv texnologiyaga
- D) An'anaviy texnologiyaga

43. PBL texnologiyasi nimani shakllantiradi?

- A) Mustaqil izlanish va jamoada ishlash ko'nikmalarini
- B) Yodlash qobiliyatini
- C) Test ishlash tezligini
- D) Nazoratga bo'lgan qiziqishni

44. O'zbek tili va adabiyoti darslarida PBL qanday amalga oshiriladi?

- A) Turli mavzularda loyihalar ishlab chiqish orqali
- B) Faqat yozma ishlar orqali
- C) Og'zaki so'rov orqali
- D) Diktantlar orqali

45. PBL jarayonida tinglovchilar qanday faoliyat olib boradi?
- A) Ma'lumot to'playdi, tahlil qiladi va taqdim etadi
 - B) Faqat tayyor matnni o'qiydi
 - C) Qoidani yodlaydi
 - D) Nazorat ishini bajaradi
46. Mazkur texnologiyalarni qo'llashda nimadan samarali foydalanish zarur?
- A) Axborot-kommunikatsiya vositalaridan
 - B) Faqat darslikdan
 - C) Og'zaki tushuntirishdan
 - D) An'anaviy mashqlardan
47. Zamonaviy texnologiyalar orqali tinglovchi bilimni qanday egallaydi?
- A) Amaliy faoliyat jarayonida
 - B) Faqat yodlash orqali
 - C) Nazorat ishlari orqali
 - D) Qoidalarini ko'chirish orqali
48. Xulosaga ko'ra, STEAM, STEM va PBL texnologiyalari nimaga xizmat qiladi?
- A) Mustaqil, ijodkor va raqobatbardosh shaxsni tarbiyalashga
 - B) An'anaviy ta'limni cheklashga
 - C) Dars yuklamasini oshirishga
 - D) Nazorat ishlarini ko'paytirishga
49. Zamonaviy ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri berilgan javobni belgilang.
- A) Raqamli texnologiyalarni joriy etish
 - B) An'anaviy usullarni saqlab qolish
 - C) Dars soatini ko'paytirish
 - D) Nazariy mashg'ulotlarni ko'paytirish
50. AKTdan foydalanish o'zbek tili ta'limida asosan nimani rivojlantiradi?
- A) Tilni ongli o'zlashtirish va ijodiy yondashuvni
 - B) Yodlash ko'nikmasini
 - C) Faqat yozma nutqni
 - D) Baholash tizimini

51. Fonetikani o'qitishda eng samarali AKT vositasi qaysi?

- A) Audio yozuvlar
- B) Matnli topshiriqlar
- C) Jadval va sxemalar
- D) Lug'atlar

52. Nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim vosita berilgan javobni belgilang.

- A) Videodarslar
- B) Test savollari
- C) Imlo mashqlari
- D) Diktantlar

53. Onlayn testlarning asosiy afzalligi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Bilimni tezkor baholash imkonini berishida
- B) Nazariy bilimni oshirishida
- C) Mustaqil ishlarni kamaytirishida
- D) Dars vaqtini qisqartirishida

54. Sun'iy intellekt asosidagi dasturlar qanday imkoniyatni beradi?

- A) Individual o'rganish sur'atini hisobga olishni
- B) Faqat baholashni avtomatlashtirishni
- C) O'qituvchini almashtirishni
- D) Darsliklarni bekor qilishni

55. SI texnologiyalari yozma nutqni rivojlantirishda qaysi javob orqali yordam beradi?

- A) Imlo va uslubiy xatolarni aniqlash orqali
- B) Faqat test tuzish orqali
- C) Og'zaki savollar orqali
- D) Rasmlar orqali

56. Chatbotlarning ta'limdagi asosiy vazifasi nima?

- A) Tezkor javob berish va mustaqil mashq qilishga yordam berish
- B) Nazorat ishlarini o'tkazish
- C) Bahoni avtomatik qo'yish
- D) Dars jadvalini tuzish

57. AKT va SI o'qituvchi rolini qanday o'zgartiradi?

- A) Yo'naltiruvchi va fasilitatorga aylantiradi

- B) Faqat nazoratchiga aylantiradi
- C) Passiv ishtirokchiga aylantiradi
- D) Texnik mutaxassisga aylantiradi

58. Raqamli ta'limda o'qituvchining asosiy vazifasi nima?

- A) Raqamli resurslarni tanlash va moslashtirish
- B) Faqat ma'ruza o'qish
- C) Texnik nosozliklarni tuzatish
- D) Tinglovchini mustaqil qoldirish

59. AKT va SIn joriy etishda qaysi muammo mavjud?

- A) Raqamli savodxonlik yetishmasligi
- B) Tinglovchilar faolligining oshishi
- C) Dars samaradorligining ortishi
- D) Bilim sifatining yaxshilanishi

60. Sun'iy intellektdan foydalanishda nimaga rioya qilish zarur?

- A) Etik me'yorlarga
- B) Faqat texnik talablarga
- C) O'quv rejasiga emas
- D) Vaqt me'yorlariga

61. Blum taksonomiyasi nimani belgilashda muhim?

- A) Ta'lim maqsadlarini tizimli belgilashda
- B) Dars jadvalini tuzishda
- C) Baholash mezonlarini bekor qilishda
- D) Nazorat ishlarini kamaytirishda

62. Ona tili ta'limida Blum taksonomiyasining qaysi sohasi muhim?

- A) Kognitiv soha
- B) Psixologik soha
- C) Jismoniy soha
- D) Ijtimoiy soha

63. Kognitiv soha nechta bosqichdan iborat?

- A) Olti bosqichdan
- B) To'rt bosqichdan
- C) Besh bosqichdan
- D) Yetti bosqichdan

64. Bilish bosqichida tinglovchining vazifasi berilgan javobni belgilang.

- A) Ma'lumotni eslab qoladi
- B) Uni baholaydi
- C) Tahlil qiladi
- D) Yangi matn yaratadi

65. Qo'llash bosqichining asosiy vazifasi qaysi qatorda berilgan?

- A) Bilimni amaliyotda qo'llash
- B) Axborotni yodlash
- C) Xulosa chiqarish
- D) Tanqid qilish

66. Tahlil bosqichida qanday faoliyat amalga oshiriladi?

- A) Grammatik vazifalar tahlil qilinadi
- B) So'zlar yodlanadi
- C) Qoidalar ko'chirib yoziladi
- D) Savollar tuziladi

67. Baholash bosqichida tinglovchi nima qiladi?

- A) To'g'ri va noto'g'ri qo'llanishni aniqlaydi
- B) Matnni qayta hikoya qiladi
- C) So'z turkumlarini sanaydi
- D) Misollar yozadi

68. Yaratish bosqichi nimani nazarda tutadi?

- A) Mustaqil va ijodiy mahsulot yaratishni
- B) Qoidani yodlashni
- C) Test ishlashni
- D) Tinglab tushunishni

69. Adabiyot darslarida Blum taksonomiyasi nimani rivojlantiradi?

- A) Tahliliy va ijodiy tafakkurni
- B) Faqat yod olishni
- C) Texnik ko'nikmalarni
- D) Nutq tezligini

70. Badiiy asarni o'rganishda dastlab qaysi bosqich amalga oshiriladi?

- A) Mazmunni bilish va tushunish

- B) Muallifni tanqid qilish
- C) Alternativ yakun yozish
- D) Sahnalashtirish

71. Blum taksonomiyasiga asoslangan darslar nimani ta'minlaydi?

- A) Mustaqil fikrlashni rivojlantirishni
- B) Dars vaqtini qisqartirishni
- C) Nazorat ishlarini kamaytirishni
- D) Yodlashni kuchaytirishni

72. Ushbu yondashuv qaysi yondashuvni amalga oshirishda muhim?

- A) Kompetensiyaviy yondashuvni
- B) Reproduktiv yondashuvni
- C) An'anaviy yondashuvni
- D) Passiv yondashuvni

73. AKT va SI yordamida qanday avlod tarbiyalanadi?

- A) Raqamli savodxon va raqobatbardosh
- B) Faqat nazariy bilimli
- C) Texnikaga qaram
- D) Passiv o'rganuvchi

74. Akademik litseylarda savod o'rgatish asosan nimaga yo'naltiriladi?

- A) Funktsional savodxonlikni yuksaltirishga
- B) Boshlang'ich yozuv malakasiga
- C) Yod olish ko'nikmasiga
- D) Nazariy bilimlarni ko'paytirishga

75. Savod o'rgatish jarayoni bilan chambarchas bog'liq kompetensiyalar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Kommunikativ va mantiqiy fikrlash kompetensiyalari bilan
- B) Texnik kompetensiyalar bilan
- C) Jismoniy rivojlanish bilan
- D) Matematik bilimlar bilan

76. Javoblarning qaysi birida innovatsion metodlarning asosiy maqsadi berilgan?

- A) Tinglovchini faol ijodkor shaxsga aylantirish
- B) Dars vaqtini qisqartirish
- C) Nazorat ishlarini kamaytirish

D) An'anaviy usullarni bekor qilish

77. Innovatsion metodlarga qaysilar kiradi?

- A) Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va AKT
- B) Faqat og'zaki so'rovlar
- C) Diktant va bayonlar
- D) Yodlash mashqlari

78. Interfaol metodlar sirasiga kiruvchi metodlar berilgan javobni belgilang,

- A) "Aqliy hujum", "Debat", "Klaster"
- B) Ma'ruza va tushuntirish
- C) Diktant va ko'chirma
- D) Mustaqil o'qish

79. Interfaol metodlar tinglovchilarda nimani rivojlantiradi?

- A) Matnni tahlil qilish va fikrni asoslashni
- B) Faqat yozuv tezligini
- C) Yodlash qobiliyatini
- D) Texnik ko'nikmalarni

80. Loyiha asosida o'qitish (PBL) nimani shakllantiradi?

- A) Yozma nutqni real hayotda qo'llash ko'nikmasini
- B) Nazariy bilimlarni yodlashni
- C) Faqat jamoaviy ishni
- D) Test ishlash malakasini

81. "OAV tilidagi xatolar" mavzusi qaysi metodga misol bo'ladi?

- A) Loyiha asosida o'qitishga
- B) Ma'ruza metodiga
- C) Reproduktiv metodga
- D) Nazorat metodiga

82. AKT savod o'rgatishda qanday imkoniyat yaratadi?

- A) Imlo va uslubiy bilimlarni mustahkamlash
- B) Faqat baholashni avtomatlashtirish
- C) O'qituvchini almashtirish
- D) Darsni qisqartirish

83. Elektron lug'atlardan foydalanish nimani rivojlantiradi?

- A) Mustaqil tahrirlash malakasini
- B) Tez yozishni
- C) Yod olishni
- D) Og‘zaki nutqni

84. Sun‘iy intellekt vositalarining asosiy vazifasi nima?

- A) Yozma ish xatolarini aniqlash va tuzatishga yordam berish
- B) Dars rejasini tuzish
- C) Bahoni avtomatik qo‘yish
- D) Darslik o‘rnini bosish

85. Differensial yondashuv nimaga asoslanadi?

- A) Tinglovchilarning bilim darajasi va qiziqishiga
- B) Dars soatiga
- C) O‘qituvchi tajribasiga
- D) Sinf hajmiga

86. Innovatsion metodlar savod o‘rgatishda qanday natija beradi?

- A) Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi
- B) Yodlashni kuchaytiradi
- C) Nazorat ishlarini kamaytiradi
- D) Darsni soddalashtiradi

87. Savod o‘rgatish natijasida tinglovchi qanday shaxs bo‘lib shakllanadi?

- A) Mustaqil va mas‘uliyatli
- B) Passiv tinglovchi
- C) Texnik mutaxassis
- D) Faqat ijrochi

88. Adabiy asarlarni o‘rganishning asosiy maqsadi nima?

- A) Ma‘naviy-estetik dunyoqarashni kengaytirish
- B) Matnni yodlash
- C) Nazariy bilimni oshirish
- D) Test natijasini yaxshilash

89. Innovatsion metodlar adabiy ta‘limda tinglovchini kimga aylantiradi?

- A) Faol tahlilchi va ijodkor shaxsga
- B) Tinglovchi shaxsga
- C) Kuzatuvchiga

D) Ijrochiga

90. Venn diagrammasi qaysi maqsadda qo'llaniladi?

- A) Obrazlarni qiyoslash uchun
- B) Asar mazmunini yodlash uchun
- C) Muallif tarjimai holini o'rganish uchun
- D) Imlo tekshirish uchun

91. Blum taksonomiyasi adabiy ta'limda nimani rivojlantiradi?

- A) Tanqidiy va ijodiy fikrlashni
- B) Mexanik xotirani
- C) Texnik savodxonlikni
- D) Tez o'qishni

92. Blum taksonomiyasida tahlildan keyin qaysi bosqich keladi?

- A) Baholash
- B) Tushunish
- C) Bilish
- D) Yodlash

93. Loyiha asosida o'qitish adabiyot darslarida nimani shakllantiradi?

- A) Mustaqil izlanish va jamoada ishlash ko'nikmasini
- B) Faqat yozma nutqni
- C) Og'zaki savodxonlikni
- D) Test ishlashni

94. STEAM yondashuvi adabiy ta'limda nimaga xizmat qiladi?

- A) Ijodiy va estetik tafakkurni rivojlantirishga
- B) Nazariy bilimni oshirishga
- C) Matnni yodlashga
- D) Baholashni osonlashtirishga

95. Sahna ko'rinishlari yaratish qaysi yondashuvga xos?

- A) STEAM yondashuviga
- B) An'anaviy yondashuvga
- C) Reproduktiv yondashuvga
- D) Nazorat yondashuviga

96. AKT adabiy ta'limda nimani oshiradi?

- A) Tinglovchilarning qiziqishini
- B) Dars yuklamasini
- C) Nazorat sonini
- D) Yozma ish hajmini

97. Innovatsion metodlar adabiy ta'limda qanday qadriyatlarni rivojlantiradi?

- A) Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni
- B) Faqat individual manfaatni
- C) Texnik tafakkurni
- D) Nazariy yondashuvni

98. Xulosaga ko'ra, innovatsion metodlarni qo'llash nimaga xizmat qiladi?

- A) Ma'naviy yetuk va ijodkor shaxsni tarbiyalashga
- B) Darsni soddalashtirishga
- C) Nazorat ishlarini kamaytirishga
- D) An'anaviy ta'limni cheklashga

99. Zamonaviy ta'lim tizimida o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi nimani belgilaydi?

- A) Ta'lim sifati va samaradorligini
- B) Dars jadvalini
- C) Sinf sonini
- D) O'quv yuklamasini

100. Globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida o'qituvchidan nima talab etiladi?

- A) Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish
- B) Faqat an'anaviy metodlarga tayanish
- C) Darslik bilan cheklanish
- D) Nazorat ishlarini ko'paytirish

101. O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi nimadan iborat?

- A) Bir nechta kompetensiyalarning uzviy majmuasidan
- B) Faqat lingvistik bilimdan
- C) Pedagogik tajribadan
- D) Metodik qo'llanmalardan

102. Kasbiy tayyorgarlik o'qituvchining qaysi faoliyatini ifodalaydi?

- A) Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish qobiliyatini
- B) Faqat dars o'tish jarayonini

- C) Nazorat ishlarini tekshirishni
- D) Hisobot yuritishni

103. O'qituvchining nazariy tayyorgarligini oshirish nimani talab etadi?

- A) Fan bo'yicha bilimlarni muntazam yangilab borishni
- B) Dars soatini ko'paytirishni
- C) Darslikni almashtirishni
- D) Faqat seminar o'tkazishni

104. O'qituvchi qaysi adabiy jarayonlardan xabardor bo'lishi zarur?

- A) Milliy va jahon adabiy jarayonlaridan
- B) Faqat milliy adabiyotdan
- C) Faqat zamonaviy asarlardan
- D) Darslikdagi asarlardan

105. Metodik tayyorgarlikni oshirish nimaga xizmat qiladi?

- A) Metodik mahoratni yuksaltirishga
- B) Nazorat ishlarini kamaytirishga
- C) Dars vaqtini qisqartirishga
- D) O'quv rejasini o'zgartirishga

106. Qaysi yondashuvlar zamonaviy metodik tayyorgarlikka kiradi?

- A) Blum taksonomiyasi, PBL, STEAM va AKT
- B) Reproduktiv metodlar
- C) Ma'ruza va tushuntirish
- D) Yodlash usullari

107. AKT va sun'iy intellektdan foydalanish nimani ta'minlaydi?

- A) Ta'lim samaradorligini oshiradi
- B) O'qituvchini almashtiradi
- C) Darsliklarni bekor qiladi
- D) Baholashni cheklaydi

108. Raqamli kompetensiyalar qaysi sharoitda ayniqsa muhim?

- A) Masofaviy va aralash ta'limda
- B) An'anaviy sinfda
- C) Faqat imtihonlarda
- D) Faqat boshlang'ich sinflarda

109. Pedagogik-psixologik tayyorgarlik nimani o'z ichiga oladi?
- A) Tinglovchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishni
 - B) Faqat intizomni ta'minlashni
 - C) Nazoratni kuchaytirishni
 - D) Reyting yuritishni
110. O'qituvchining kasbiy tayyorgarligi qanday yo'llar bilan oshiriladi?
- A) Malaka oshirish kurslari va tajriba almashish orqali
 - B) Faqat mustaqil ish bilan
 - C) Dars yuklamasini kamaytirish bilan
 - D) Darsliklarni almashtirish bilan
111. O'qituvchining mustaqil o'rganishi nimaga xizmat qiladi?
- A) Kasbiy rivojlanishga
 - B) Dars vaqtini tejashga
 - C) Nazorat ishlarini kamaytirishga
 - D) Baholashni soddalashtirishga
112. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi kerak?
- A) Ijodkor va mas'uliyatli
 - B) Faqat tajribali
 - C) Qat'iy nazoratchi
 - D) Passiv tinglovchi
113. Ta'lim samaradorligi ko'pincha nimaga bog'liq?
- A) Baholash tizimining sifatiga
 - B) Dars soatlariga
 - C) Sinf soniga
 - D) Darslik hajmiga
114. Innovatsion baholash nimani aniqlashga qaratilgan?
- A) Tinglovchilarning kompetensiyalarini
 - B) Faqat nazariy bilimni
 - C) Faqat yozma savodxonlikni
 - D) Faqat test natijalarini
115. Formativ baholashning asosiy vazifasi nima?
- A) Tinglovchilar bilimni rivojlantirib borish
 - B) Yakuniy baho qo'yish

- C) Reyting tuzish
- D) Nazoratni kuchaytirish

116. Formativ baholash tinglovchiga qanday imkon beradi?

- A) O‘z xatolarini tushunib tuzatishga
- B) Faqat baho olishga
- C) Nazoratdan qochishga
- D) Yodlashga

117. Raqamli baholash vositalarining afzalligi nimada?

- A) Tezkor va obyektiv baholash imkonini berishida
- B) Baholashni murakkablashtirishida
- C) Dars vaqtini kamaytirishida
- D) Yozma ishlarni bekor qilishida

118. Portfel usuli nimani kuzatishga imkon beradi?

- A) Tinglovchining uzoq muddatli rivojlanishini
- B) Faqat yakuniy natijani
- C) Nazorat ishlarini
- D) Dars davomiyligini

119. Peer Assessment usuli nimani rivojlantiradi?

- A) Tanqidiy va konstruktiv fikrlashni
- B) Yodlash qobiliyatini
- C) Tez yozishni
- D) Og‘zaki nutq tezligini

120. Self-Assessment qanday xususiyatni shakllantiradi?

- A) Mustaqil va mas’uliyatli fikrlashni
- B) Passivlikni
- C) Faqat o‘zini tanqid qilishni
- D) Reytingga qiziqishni

121. Ijodiy va loyiha baholash nimani o‘lchaydi?

- A) Ijodiy va tahliliy qobiliyatni
- B) Yod olishni
- C) Test tezligini
- D) Og‘zaki savodxonlikni

122. Gamifikatsiya asosidagi baholash nimani oshiradi?

- A) Tinglovchilarning qiziqishi va rag‘batini
- B) Dars yuklamasini
- C) Nazorat sonini
- D) Yozma ish hajmini

123. .Innovatsion baholash metodlarini qo‘llash nimaga xizmat qiladi?

- A) Ta’lim sifatini oshirishga
- B) An’anaviy baholashni bekor qilishga
- C) Darsni soddalashtirishga
- D) Nazorat ishlarini kamaytirishga

VII. GLOSSARIY

Adabiy-estetik tafakkur – badiiy asarlarni estetik mezonlar asosida anglash, go‘zallikni his etish va baholash qobiliyati.

Adabiy tahlil – badiiy asarning mazmuni, g‘oyasi, obrazlari va badiiy vositalarini ilmiy asosda tahlil qilish jarayoni.

AKT (Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) – ta’lim jarayonida axborotni yaratish, qayta ishlash va uzatishga xizmat qiluvchi raqamli vositalar majmuyi.

Baholash – tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini aniqlash va tahlil qilish jarayoni.

Blum taksonomiyasi – ta’lim maqsadlarini bilishdan yaratishgacha bo‘lgan bosqichlarda tasniflovchi pedagogik model.

Differensial yondashuv – tinglovchilarning individual imkoniyatlari va bilim darajasiga mos ta’limni tashkil etish usuli.

Didaktik prinsiplar – ta’lim jarayonini tashkil etishda amal qilinadigan umumiy pedagogik qoidalar.

Fanlararo integratsiya – turli fanlar mazmunini o‘zaro bog‘liq holda o‘qitish jarayoni.

Formativ baholash – dars jarayonida tinglovchilarning rivojlanishini doimiy kuzatish va yo‘naltirishga qaratilgan baholash turi.

Funksional savodxonlik – bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri va samarali qo‘llay olish qobiliyati.

Ijodiy tafakkur – yangi g‘oya va fikrlar yaratish, muammolarga noodatiy yechim topa olish qobiliyati.

Individual yondashuv – har bir tinglovchining qiziqishi va ehtiyojini hisobga olgan holda ta’lim berish.

Innovatsion metodlar – ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy va yangicha pedagogik usullar.

Interfaol metodlar – tinglovchini faol ishtirokchi sifatida jalb etuvchi ta’lim usullari.

Kommunikativ kompetensiya – og‘zaki va yozma nutqda samarali muloqot qila olish qobiliyati.

Ko‘rgazmalilik prinsipi – ta’limda vizual vositalardan foydalanish orqali bilimni samarali o‘zlashtirish tamoyili.

Loyiha asosida o‘qitish (PBL) – tinglovchilarning mustaqil izlanishi va amaliy faoliyatiga asoslangan ta’lim texnologiyasi.

Ma’naviy barkamol shaxs – bilimli, axloqli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq inson.

Matn ustida ishlash – til va adabiyot darslarida asosiy o‘quv birligi sifatida matnni tahlil qilish jarayoni.

Metodik kompetensiya – o‘qituvchining ta’lim metodlarini samarali qo‘llay olish malakasi.

Nutq madaniyati – adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda ravon va mantiqiy so‘zlay olish qobiliyati.

Onglilik va faollik prinsipi – tinglovchilarning bilimni ongli va faol o‘zlashtirishini ta’minlovchi didaktik tamoyil.

O‘zini baholash (Self-assessment) – tinglovchining o‘z faoliyati va natijalarini mustaqil tahlil qilishi.

Pedagogik texnologiya – oldindan rejalashtirilgan, natijaga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni modeli.

Portfolio – tinglovchining yil davomida bajargan ishlari majmui asosida baholash usuli.

Raqamli kompetensiya – axborot texnologiyalaridan samarali va ongli foydalanish qobiliyati.

Refleksiya – tinglovchining o‘z bilim va faoliyatini tahlil qilishi jarayoni.

Savodxonlik – imlo, grammatika va uslubiy me’yorlarga rioya qilgan holda fikrni to‘g‘ri ifodalash qobiliyati.

STEAM texnologiyasi – fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika integratsiyasiga asoslangan ta’lim yondashuvi.

STEM texnologiyasi – mantiqiy va tizimli fikrlashni rivojlantiruvchi fanlararo

ta'lim modeli.

Sun'iy intellekt (SI) – o'quv jarayonida individual yondashuvni ta'minlovchi raqamli texnologiya.

Tanqidiy fikrlash – axborotni tahlil qilish, baholash va asosli xulosa chiqarish qobiliyati.

Tarbiyaviy vazifalar – tinglovchilarda axloqiy va ma'naviy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan faoliyat.

Yaratish bosqichi – Blum taksonomiyasidagi eng yuqori daraja bo'lib, yangi mahsulot yaratishni nazarda tutadi.

Yoshlarga moslik prinsipi – ta'lim mazmunining tinglovchilarning yosh va bilish imkoniyatlariga mos bo'lishi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Maxsus adabiyotlar

1. Dadaboyev H. "O'zbek terminologiyasi" - T.: Nodirabegim, 2020. - 142 b
2. Xudoyberganova D. "Til. Tafakkur. Madaniyat" – T.: Nodirabegim, 2020.
3. Qodirov, Sh. "O'zbek tilida punktuatsiya qoidalari"– T.: "Fan va ta'lim", 2019. – 132 b.
4. Normurodova, G. "Yozma nutqda tinish belgilarining ro'li" – "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, №2, 2020. – 21–30 b.
5. Rustamova, N. "Punktuatsiya va matnning mantiqiy tuzilishi" – T.: "Zamonaviy ta'lim", 2021. – 98 b.
6. Ergasheva, D. "Tinglovchilarda yozma nutq madaniyatini shakllantirishda punktuatsiya" – "Pedagogik innovatsiyalar", №3, 2022. – 35–42 b.
7. Tursunov, A. "Zamonaviy maktabda o'zbek tilini o'qitishda punktuatsiya metodikasi" – T.: "O'qituvchi", 2023. – 112 b.
8. Jalilova, S. "Til kompetentsiyasini rivojlantirish metodikasi" – T.: "Fan va innovatsiya", 2020. – 140 b.
9. Mirzaev, F. "Tinglovchilarda yozma nutq va til kompetentsiyasini oshirish" – "Ta'lim va tarbiya", №4, 2021. – 55–63 b.
10. Sattorova, L. "O'zbek tilini o'qitishda yozma nutq madaniyati"– T.: "Pedagogik qo'llanma", 2022. – 168 b.
11. Raxmonov, B. "Yozma nutq va punktuatsiya: tinglovchi kompetentsiyasi" – "Oliy ta'limda innovatsiyalar", №1, 2023. – 47–54 b.
12. Normurodova, D. "O'zbek tili darslarida yozma nutq va punktuatsiya bo'yicha mashqlar" – T.: "O'qituvchi metodikasi", 2024. – 102 b.
13. Simon Greenall "Reward" Elementary, Student's book, Macmillan 2002

IV. Elektron ta'lim resurslari

1. <http://natlib.uz>
2. <http://yedu.uz>
3. <http://lex.uz>
4. <http://lib.bimm.uz>
5. <http://ziyonet.uz>
6. <http://natlib.uz>

